

**ZOONIMIK FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNI TARJIMADA AKS ETISH  
MUAMMOLARI****Odina Olim qizi Xoshimova****2-kurs tayanch-doktorant****ABSTRACT**

Rivojlanayotgan globallashuv sharoitida madaniy va lingvistik elementlarni turli tillar o‘rtasida moslashtirish va matnlarining (og‘zaki va yozma) tarjima sifati muhim rol o‘ynaydi. Shuning uchun mukammal tarjima o‘zaro hamkorlikning ishonchlilik darajasini belgilaydi, qolaversa, mazkur soha maydonida professionallikni ko‘rsatishga imkon beradi. Mazkur maqolada hayvon nomi bilan bog’liq frazeologik iboralarning tarjima qilishdagi muommolarga nazar tashlaymiz.

**Kalit so’zlar:** zoonimlar, frazeologik iboralar, tarjima, ekvivalentlik, obrazlilik, tarjima turlari

**Kirish**

Har bir milliy tilda badiiy nutqning hissiy-ta’sirchanligi va obrazlilagini yuzaga keltiruvchi shunday barqaror so’z birikmalari tez-tez uchrab turadiki, ularning paydo bo’lishi xalqlarning tabiat va jamiyatdagi narsa va voqeа-hodisalarga nisbatan qarashlari, munosabatlari bilan mustahkam bog’liqidir: odamlar narsa va hodisalar dunyosiga nisbatan o’z munosabatlarini obrazli, hissiy-ta’sirchan, hayajonli tarzda ifoda etish maqsadida turli-tuman muqoyasaga asoslangan lisoniy vositalardan foydalanadilar. Tasvirlanayotgan shaxs, narsa, xislat-xususiyat, voqeа-hodisa va tabiat manzaralari ko’pincha mubolag’ali tarzda kitobxonga yaxshi tanish obrazlar bilan muqoyasa qilinadi. Natijada tasvir yanada oydinlashadi, ifodaning obrazliliği oshadi, yuqori ta’sirchanlik va hissiy tuyg’u yuzaga keladi. Kishilarinng tabiat va jamiyatdagi narsa va voqeа-hodisalarni hayvonot olami, o’simliklar dunyosi, tabiat hodisalari bilan muqoyosa qilishlari natijasida yuzaga kelgan turg’un birikmalarning obrazli asoslari aksariyat hollarda timsoliy mazmun kasb o’tadi. Frazeologik birliklar obrazlilik va emotsiyal-ekspressivlikni yuzaga keltiruvchi eng muhim vositalardan biridir. Ular badiiy, siyosiy va publitsistik matnlarning ifodaviy ta’sirchanligini oshirish uchun xizmat qiladi. Shu boisdan frazeologizmlar tilshunoslikning alohida sohasi hisoblangan uslubshunoslikda muhim ahamiyat kasb etadi.

**Asosiy qism**

Tarjima aslida, “Biror matnning, ya'ni, matndagi til birliklarining ma'lum mazmunini bir tildan boshqa tilga to‘g‘ri transferentsiyalashdir”.[1.28] L.S. Barxudarov ta'rificha: “Tarjima bir tildagi nutqiy faoliyat (matn)ning o‘zgarmas mazmunini saqlagan holda ikkinchi tildagi nutq faoliyati (matn)ga aylantirish jarayoni” [2.126] hisoblanadi.

Frazeologik birliklarning transformatsiyasi, ularning yangilanish xususiyatlari nafaqat muayyan uslubiy mahsuldarlik manbai, shu bilan birga, yangi frazeologik birliklarning shakllanish omili bo‘lib xizmat qiladi. Shu ma’noda frazeologik birliklarni transformatsion, semantik-pragmatik, lingvomadaniy jihatdan tadqiq etish hamda ilmiy xulosalar chiqarish jahon tilshunosligi uchun muhim ahamiyat kasb etadi. O’zbek tilshunosligida davr ijtimoiy ehtiyojlaridan kelib chiqadigan maqsad va vazifalar yechimiga yo’naltirilgan samarador va zamonaviy metodologik hamda tadqiq usullari asosida ilmiy va amaliy izlanishlar olib borilmoqda. Shuningdek, tilda barqarorlashgan frazeologik birliklarning o‘zgarishi va ularni modernlashtirish hamda yangi tushunchalarni ifodalovchi frazeologik birliklar shakllanishining vosita va usullarini atroflicha tavsif va tahlil etish o’zbek tilshunosligining dolzarb muammolaridan biridir.[3.5]

Tarjimaning tilshunoslik nazariyasi nuqtai nazaridan, tarjima qilish jarayonidagi matnni tillararo transformatsiya qilish, mazmunni saqlash, asl tildagi jumlanı, har bir so‘zni yoxud iborani o‘z o‘rnida to‘g‘ri qo‘llash va ularning funksional muqobilligini adekvat shaklda ta‘minlash tarjimondan ulkan mahorat talab etadi. Shuni qo‘sishimcha qilish lozimki, tarjima jarayonida ma'lum lug‘atdan yoki o‘z bilimlari asosida so‘z va iboralarning eng qulayini, optimalini topib uni qo‘llashda birgina matniy holat nuqtai nazaridangina emas, balki ularni leksik-semantik, grammatik, stilistik jihatdan muvofiqlashtirish tarjimada eng muhim omildir. Tarjima qilinayotgan asl tildagi so‘z, so‘z birikmasi, gap, matnlarning ikkinchi tilda qo‘llanishiga ko‘ra, ularda mujassam bo‘lgan barcha ma’no qirralari (ma’no nozikklari) ham tarjimada o‘z o‘rnini topmog‘i lozim.

**Muhokama**

Frazeologik iboralar badiiy asarda muallif tilida hamda unda tasvirlangan personajlar nutqida ko‘p uchrashi sababli, ular badiiy adabiyot uchun juda xarakterlidir. Biroq, A.V. Fedorovning fikricha, “...nutq vositalarining bu kartegoriyasi faqatgina badiiy adabiyotning xususiy mulki bo‘lmaydi. Chunki frazeologik iboralar publisistikada va qisman, ilmiy adabiyotlarda ham ishlataladi. Shuning uchun ularga faqat badiiy adabiyotga taalluqli masala deb emas, balki juda muhim umumiy til masalasi sifatida qaramoq kerak”. [4.58]

O‘zbek va ingliz tillarida zoofrazemalar tarjimasida adekvatlikka erishish yo‘llarini izlanar ekanmiz, unda uning turli tarjima usullariga murojaat qilishimizni taqazo etadi. Shu o‘rinda aytish muhimki, ekvivalentlik va adekvatlik terminlari olimlar tarafidan ba’zan sinonim, ba’zan ma’no jihatidan tarjimashunoslikning ikki omilini anglatadigan tayanch tushunchalar sifatida ishlatiladi. Masalan, R. Leviskiyning “Funksional adekvat tarjimaning prinsiplari haqida” degan maqolasida ekvivalentlik va adekvatlik terminlarini sinonim sifatida [5.1984], Dj.Ketford ekvivalent tarjima – adekvat tarjima [6.2004] deb ishlatadilar. K.Rays va G. Vermer adekvatlikka ta’rif berar ekan, uning pragmatik omilidan kelib chiqib, maqsad sari yo‘naltiriladi degan fikrni beradi [6.1984]. Ekvivalentlik ularning fikricha matnlararo to‘liq muvofiqlikni nazarda tutadi. Adekvatlik va adekvat terminlari tarjimada jarayon sifatida namoyon bo‘lsa, ekvivalentlik va ekvivalent madaniyatlararo ikki matn orasidagi munosabatni bildirib, o‘xshash kommunikativ funksiyalarni amalga oshiradi. Yuqoridagi olimlarning fikricha ekvivalentlik nafaqat nutq birliklari, balki matnlararo munosabatni ham o‘z ichiga oladi va matn ekvivalentligi uning har bir segmentining ekvivalentligini nazarda tutmasligi mumkin. L.S. Barxudarov “So‘zning kontekstual ma’nosи va tarjima” nomli maqolasida tarjimada so‘zning ekvivalenti kontekst bilan bog‘liqligini ta’kidlab, bu holda so‘zning ma’nosи lo‘g‘aviy ma’no bilan farq qilishi mumkin degan xulosaga keladi.[8.1975]

Equivelentlik – bu tarjima jarayonida eng ko‘p murojaat etiladigan tushunchalardan biri ekan, u tarjimada muqobillik darajasini ko‘rsatish bilan birlgilikda leksik birliklarni asliyat tilidan tarjima tiliga olib o‘tish usuli sifatida ham foydalaniladi. J.Abdug‘aniyevaning fikricha, ekvivalentlik tarjimada bir necha vazifalarni bajaradi, jumladan, u tarjimaning asosiy hodisasi hisoblanib, tarjimani o‘rganishda katta samara beradi hamda tarjimalarni tahlil qilish uchun foydali kategoriylar tarkibiga kiradi [9.25]. Ekvivalentlik sohasi morfemalar, so‘zlar, iboralar, jumlalar, idiomalar va atamalar kabi til birliklarini qamrab oladi. J.Kaftfordning ta’kidlashicha, tarjima amaliyotining asosiy muammosi tarjima tilida ekvivalentlar topishdir. Tarjima nazariyasining asosiy maqsadi tarjima ekvivalentligining tabiatini va hodisalarining tavsifini berish singari jarayonlarni qamrab oladi. [10.21]

Equivelentlar to‘liq, qisman va umuman mos kelmaslik bo‘lishini hisobga olsak, ingliz tilidan o‘zbek tiliga o‘giraladigan zoonimik frazeologik birliklarni to‘liq ekvivalentlari shunday tayyor ekvivalentlarki ular o‘zbek tilidagisi bilan ma’nosи, leksik tarkibi, obrazliligi, stilistik bo‘yoqdorligi va grammatik tuzulishi bilan mos tushishini ko‘ramiz:

To kill two birds with one stone – bir o‘q bilan ikki quyonni o‘ldirmoq;

A cat has nine lives – mushukning to‘qqiz joni bor;

Don’t count your chickens before they hatch – jo‘jani kuzda sanaymiz;

busy as a bee – ariday mehnat sevar;

Semantik rnumosabatning ikkinchi varianti qisman ekvivalent so‘zga to‘g‘ri keladigan ma'noning kesishishi hodisasi sifatida ko‘rsak, bu degani ikki tildagi muayyan so‘z bir xii ma'n o yoki ma'nolarga ega bo‘lishi mumkin va shunday bo‘lsa ham ayni paytda ularning bir-biriga to‘g‘ri kelmaydigan ma'nolari ham bo‘lishi mumkin.

### Xulosa

Shunday qilib, frazeologik birliklarning tildan tilga tarjima qilinishi frazeologiyaning juda qiyin sohasi bo‘lib, bu fanni o‘rganishda katta tajriba talab etiladi. Frazeologik birliklarning yana bir muhim xususiyati shundaki, har birining ma’nosи unga kiritilgan so‘zlarning ma’nolariga qo‘shilmaydi. Shuning uchun frazeologik birliklar yunoncha “o‘ziga xos”degan ma’noni anglatuvchi “idioma” atamasi bilan belgilanadi. Ingliz tilida ularni “idioma” deb ham atashadi. Ba’zi tilshunoslar dastlab frazeologik birliklarni boshqa tillarga tarjima qilib bo‘lmasligini ta’kidlashdi. Hozirgi kunda tarjima san“atining yanada jozibador bo‘lishi uchun tilshunos olimlar nafaqat hozirgi va o‘tmishdagi tillarning dalillarini, balki xalq hayotining o‘ziga xos xususiyatlarini aks ettiruvchi tarixiy ma’lumotlardan, etnografiyadan ham foydalanmoqdalar.

### Adabiyotlar

1. Швейцер А.Д. Теория перевода.— М.:1988.- 28 с.
2. Бархударов Л.С. Язык и перевод.—М.:1955.-22 с.126
3. Болтаева Барно Исауловна. Ўзбек тили фразеологик бирликларининг трансформацияси. (семантик-прагматик таҳлил) . (PhD) Диссертацияси автореферати 5 б.
4. Введение в теорию перевода. (1953; 2-е изд. — 1958; 3-е изд. — под загл. «Основы общей теории перевода» — М., 1968; 4-е изд. — М., Высшая школа, 1983
5. Левицкий Р. “О принципе функциональной адекватности перевода”. — Москва. 1984.
6. Дж.Кэтфорд С. Лингвистическая теория перевода (A Linguistic Theory of Translation). — Москва. 2004
7. Werner Koller. “The concept of equilanes and the object of translation” 1936.
8. Бархударов Л.С.-“Язык перевод” Москва, 1975.
9. Abduganiyeva J.R. Consecutive Interpretation Quality Assessment Within Training Process. ЎзМУ хабарлари. – Тошкент, 2023. – №1/7. – Б. 22-25
10. Catford J.C. A Linguistic Theory of Translation. – Indiana: Oxford University Press, 1965. – P.21